

**BO'LAJAK OFITSERLARNI KASBIY KOMPETENSIYALARNI OSHIRISHDA  
PROFAYLINGNING O'RNI****Voxobov Nuriddin G'ofurjon o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi  
(2-bosqich magistranti)*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada bo'lajak ofitserlarni kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda profayling texnologiyasining ahamiyatini aniqlash, bo'lajak ofitserlarning profaylingga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini aniqlash, profaylingga oid kompetensiyalarga ega bo'lgan xodimlarni psixologik profilini ishlab chiqishning o'рни va ahamiyati yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *profayling, psixologik portret, profil, verbal va nonverbal xulq-atvori, kuzatuv, so'rab surishtirish.*

**Аннотация:** *В данной статье описано значение технологии профилирования в повышении профессиональной деятельности будущих офицеров, определение уровня сформированности профессиональных компетенций будущих офицеров по профилированию, роль и значение разработки психологического профиля сотрудников, обладающих профилирующими компетенциями.*

**Ключевые слова:** *профайлинг, психологический портрет, профиль, вербальное и невербальное поведение, наблюдение, допрос.*

**Abstract:** *This article describes the significance of profiling technology in increasing the efficiency of professional activity of future officers, determining the level of formation of professional competencies related to profiling of future officers, the role and importance of developing a psychological profile of employees with profiling competencies.*

**Key words:** *profiling, psychological portrait, profile, verbal and non-verbal behavior, surveillance, interrogation.*

**KIRISH**

Jahonda kuzatilayotgan xavf-xatar va tahdidlardan: xalqaro terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida yot g'oyalar va giyohvandlik vositalarining tarqalishining kuchayib borish tendensiyalari huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari oldiga ularning oldini olish hamda barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida bo'lajak ofitserlarning psixodiagnostikasining akmeologik konsepsiyasiga binoan kasbiy kompetensiyalarini baholash, xodimlar motivatsiyasining rivojlanishi hamda xizmat faoliyatida profayling texnologiyasini joriy etish, bo'lajak ofitserlarining bilingval kompetensiyasini shakllantirish modelidan foydalanish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tizimda xizmat olib borayotgan xodimlarning profaylingga oid bo'lgan kasbiy kompetensiyasini aniqlash mezonlari, ehtimoliy xavfga ega bo'lgan jinoyatchilarning psixologik qiyofalarini yaratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, xodimlarni profayling bo'yicha kasbiy sifatlarini

maxsus psixologik vositalar yordamida oshirishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zaruriyati kuzatilmoqda.

Ch.Lombrozo davridan boshlab, ilm oddiy jinoyatchini tasvirlash borasidagi urinishlarni rad qilgan. Notanish jinoyatchining psixoprofilini tuzish asoschilaridan biri - FBR agentlariga kriminologik psixologiyadan ma'ruzalar o'tuvchi, FBR maxsus agenti Djon Duglas 1979-yildan boshlab shaxsiy jinoiy profillashtirish dasturini boshqargan. Aynan FBRning bir qancha maxsus agentlari (R.Rasslera, R.Xeyzelvuda) rasmiy foydalana boshladilar, 1984-yilda psixologik fe'l-atvor markazi (bixeviristik bo'lim) va yagona milliy ma'lumotlar bazasi - VICAP tashkil etildi.

Respublikamizda ushbu soha yangi kirib kelayotgan psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, u asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tatbiq etilmoqda. Shu jumladan biz ham harbiylar misolida profayling metodini o'rganishga harakat qildik.

So'nggi vaqtlarda, aholi ko'p jamoat joylarida, qo'riqlanadigan muhim obyektlarda, ayniqsa havo transportida, profayling metodidan foydalanish keng tarqaldi va targ'ib etilmoqda. Profayling hozirda kadrlarni o'rganish, xizmat tekshiruvlari, jinoiy sud-huquq protsessida ma'lumotning haqiqiylikini baholash masalasini hal etish, protsessual hujjatlarni tayyorlashda qo'llaniladi.

### **ASOSIY QISM**

Profayling (ing, Profiling - shaxs parametrlarini aniqlash) - shaxsning tashqi ko'rinishi, verbal va noverbal xulq-atvori, xususiy belgilarini tahlil qilish asosida shaxs xulq-atvorini prognoz qilish va baholash metodikasi hamda psixologik usullari yig'indisidir. Profayling orqali shaxsning psixologik portreti yoki profili yaratiladi. Hozirgi kunda shaxslarning profilini yaratish asosida insonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, temperamenti va xarakter xususiyatlarini aniqlash borasida Respublikamizdagi organlar tomonidan ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Profaylingdan foydalanishning asosiy maqsadi - fuqarolar bilan ularning o'ziga xos xususiyatlarini verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalangan holda aniqlash va unga qarab psixologik ta'sir etish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Buning uchun quyidagi bilim va malakalarni egallash lozim:

- vizual (ko'rish va kuzatish asosida) psixologik tashxis yordamida shaxslarning xatti-harakatlarini baholash texnologiyasini;
- shubhali shaxslarga ruhiy ta'sir eta olish tajribasini;
- qaltis, kutilmagan vaziyatlarda hissiy xususiyatlarni boshqarish;
- harakatlanayotgan fuqarolarga ruhiy ta'sir o'tkazish borasidagi tajribalarni takomillashtirishni;
- jamiyatga zid qarashlari mavjud va shunga moyil bo'lgan shaxslarni og'zaki (so'zda ifodalangan) surati (portreti) va xulqidagi alohida belgilari asosida tanib olishni;
- shubha uyg'otuvchi shaxsning xatti-harakatlarini o'rganishni;
- jamiyatga zid hamda huquqbuzarlik harakatlarini sodir etishga moyil shaxslarning xatti-harakatlarini nazorat qilishni;
- xizmat vazifalarini amalga oshirish jarayonida operativ ahamiyatga molik ma'lumotlarni olish va ulardan samarali foydalanish borasida malaka va tajribalarni shakllantirishni.

Ta'kidlash kerakki, shubhali shaxslarning xatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress psixodiagnostika qilish, ularning xatti-harakatidagi normadan og'ishlarni qayd etish hamda ularni o'rganishga qaratilgan boshqa harakatlar profayling metodining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Bular qatoriga profaylingning mantiqiy chizmasida g'ayriqonuniy aralashish harakatlarini tayyorlash chog'ida xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxslarning harakatlari modelini tuzish, xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tiplar (profillar) – bunday harakatlarning ehtimol tutilgan ijrochilari tasnifini yaratish, kuzatuv hududidagi har bir shaxsning maqomini rejalashtirilayotgan g'ayriqonuniy aralashuv harakatiga aloqador bo'lish mumkinligi nuqtayi nazaridan aniqlash, har bir shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish, ya'ni profillashni qo'shish mumkin.

Xo'sh, bo'lajak ofitserlar ishlash mobaynida profayling usulidan qanday foydalanishi mumkin?

Avvalo, ular sohaga aloqador amaliy psixologiya bilimlariga ega bo'lishi lozim. Ofitserlar insonlarni tashqi ko'rinishi va xulq-atvori, kiyinishi, o'zini tutishi, buyumlarning o'ziga xosligi va boshqalarga e'tiborni qaratishi lozim. Bu kasbiy kuzatuv orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, biror-bir huquqbuzarlikni amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxs o'zining psixologik holatini to'liq nazorat qila olmaydi, uning organizmda, fiziologik va tashqi ko'rinishida o'zgarishlar yuzaga keladi, vaziyatga affektiv yondashuv, yolg'on va nosamimiy harakatlar, asabiylashish kuzatiladi. Aniqroq aytganda, uning psixologik holati bilan to'qnash kelganda nosamimiylik va namoyishkorona harakatlar, suidsidial alomatlarni namoyon qiladi.

Agar profayling metodini fuqarolar bilan suhbatlashish, ularning ruhiy holatini kuzatish sifatida ta'riflanadigan bo'lsa, bu metod ikkita bir-birini to'ldiruvchi metodlardan, ya'ni kuzatish metodi va so'rov metodidan tashkil topgan, desak to'g'ri bo'ladi.

XXI asrga kelib profayling metodini o'rganishga qiziqish ortdi va bu borada bir qancha kitoblar, dissertatsiyalar yozildi. Shu o'rinda N.V.Chalenko o'z dissertatsiyasida bergan quyidagi ta'rifni keltirish mumkin: "Profayling yoki profayl metodi kuzatish va maxsus so'rov usuli yordamida xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, noadekvat xatti-harakatga moyil shaxslarni aniqlashga qaratilgan maxsus tadbirlar tizimi". Ya'ni, ko'pincha bu metod xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash maqsadida qo'llaniladi, degan fikrlarni ilgari surgan edi.

Profayling tizimi yangi soha bo'lganligi uchun uning bir necha bosqichlarga bo'linishi yuzasidan ushbu yo'nalishni o'rganayotgan olimlar turli fikr-mulohaza yuritadilar. Jumladan, AQSh va Buyuk Britaniya mutaxassislari kuzatish va so'rab-surishtirish bosqichlariga bo'lib, ularni alohida-alohida texnikasini o'rganadilar. Shaxslarni kuzatishda ularning o'zini tutishi, harakatlari, mimikasi, nigohlari va atrofdagilarga nisbatan munosabati muhim o'rin tutadi. Bizning kuzatishlarimiz jarayonida ma'lum bo'ldiki, bo'lajak ofitserlar fuqarolarni kuzatishda uchta asosiy omil ta'sir qilar ekan. Bularning birinchisi intuitsiya bo'lib, buni sensor sezuvchanlik ham deb nomlashadi, soddaroq qilib tushuntirilsa, Xudo bergan ichki tug'ma qobiliyat, bunda insonning ko'ngli sezadi, nazoratdan o'tayotgan shaxsning huquqbuzarlik sodir qilishga moyilligi yoki sodir qilayotganligini bo'lajak ofitser ichki hissiyoti orqali aniqlay oladi; Ikkinchisi ko'nikma va tajriba, ya'ni ayrim xodimlarning ko'p yillar ishlashi natijasida unda o'sha joydagi sir-asrorlardan xabardor bo'lishi, harakatlanayotgan fuqarolarning qanday huquqbuzarlikni qaysi usullarda sodir etishiga oid ko'nikmalar shakllangan bo'ladi. Misol

uchun, YPX xodimlari bilan birga xizmat qilayotgan ofitserlar ko'p sonli avtomashinalar orasida qaysi birining bagajida yuki bor ekanligini ajrata oladi, yoki aeroportda ishlaydigan xodim Turkiya yoki Hindistonga uchib ketayotgan, yoki kelayotgan yo'lovchilarning qanday ashyolarni olib kelishi, qanday yashirib olib o'tishlari yoki, boshqa jihatlarini juda yaxshi bilishadi. Bu narsa yillar davomida hech kim ularga alohida dars mashg'uloti o'tmagan bo'lsa-da, ko'nikma tarzida shakllangan.

Uchinchidan esa bilim va dunyoqarashning keng ekanligi. Ushbu omil uchinchi o'rinda bo'lsa ham, qolgan ikkita omil mavjud bo'lmasada, o'z bilimiga ishongan va dunyoqarashi keng bo'lgan xodim har qanday sohada universal xodim sifatida o'zini ko'rsata oladi.

Rossiyalik mutaxassislar esa profaylingni amalga oshirishni bir necha bosqichlarga bo'lishni nazarda tutadilar. Lekin mazkur bosqichlar orasida ham yuqoridagi kuzatish va so'rab-surishtirish bosqichlari o'rin olgan. Jumladan, mazkur bosqichlar quyidagilardan iborat: Dastlabki kuzatuv bunda katta oqimda harakatlanayotgan yo'lovchilarni kuzatish, ular orasidan shubhali shaxslarni ajratib olish lozim.

Shaxsiy va yuk hujjatlarini tekshirish. Shubhali tuyulgan shaxslarning shaxsiy va yuk hujjatlarini sinchkovlik bilan tekshirish, aynan shubha nimaga bo'layotgan bo'lsa, ana shunga aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

So'rab-surishtirish. Mazkur ikki bosqichda ham aniqlab bo'lmagan yoki to'liq aniqlash zarur bo'lgan hollarda shaxs bilan so'rab-surishtirish o'tkazish lozim bo'ladi. Ya'ni, shubhali shaxsga tegishli, uning tomonidan olib o'tilayotgan shubhali, yoki noqonuniy ashyolar yuzasidan tegishli savollar berish orqali vaziyatga aniqlik kiritish mumkin.

Shubhali belgilar bo'yicha savollar berish. Bunda yuqoridagi bosqichdan farqi shundaki, so'rab-surishtirish shaxsga tegishli, uning tomonidan olib o'tilayotgan shubhali, yoki noqonuniy ashyolar haqida bo'lsa, bunda aynan birinchi bosqichdagi shubhali belgilar bo'yicha savollar o'tkaziladi. Misol uchun, bojxona nazorati jarayonida bir yo'lovchi atrofga alang-jalang nazar tashlab turibdi, yoki bir joyda harakatsiz qotib qolgan, uning bu xatti-harakatlari izoh talab qiladi.

Boshqa organlar bilan hamkorlikda keyingi kuzatuv. Yuqoridagi to'rttala bosqichda ham aniq bir natijaga erishilmasdan, ammo shubha tarqamagan bo'lsa, o'tkazilishi mumkin bo'lgan nazorat organlari bilan hamkorlikda kuzatuv amalga oshiriladi. Bu o'z-o'zidan o'zaro ma'lumot almashuv orqali amalga oshishi mumkin.

O'rganish natijalarimizda shu ma'lum bo'ldiki, xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlashda quyidagi xatti-harakatlar majmui muhimdir:

- jag'larning siqilishi, ko'zlarning torayishi
- tajovuzkorlik holatini ifodalaydigan niyatlarni ko'rsatishi mumkin;
- suhbatdoshiga qattiq qarash, og'izning aniq siqilib turishi, lablardagi tik chiziqlar, yelka kamarining zo'riqishi, qo'llarning musht tutilishi, peshona ostidan qarash
- tajovuzkorlik, kuchli zo'riqish, qo'rqish va qat'iy harakatlarga tayorgarlik;
- barmoqlarini bir maromda harakatlanishi, tipirchilashi, narsalarni (masalan, sigareta pachkasini) qo'lda aylantirish
- ichki xavotir belgilari;
- makonga yo'naltirilgan "bo'm-bo'sh" nigoh, egik bosh, baland ko'tarilgan yelkalar, badanga jipslashtirilgan tirsaklar, katta ochilgan ko'zlar

- tushkunlik, qatiyatsizlik, to'liq passivlik belgilari;

### **XULOSA**

Umuman olganda, profayling metodi ko'magida har qanday shaxs o'z faoliyatini (ya'ni u yolg'on va rost gapirayotgan shaxsni ajrata oladi) yanada takomillashtirishi mumkin. Profayling metodning joriy etilishi xodimlarda favqulodda vaziyatlarda hissiy xolatlarni boshqarish hamda shubhali shaxsga qarshi ta'sir ko'rsata olish qobiliyatini shakllantiradi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Ekman P. Communication through non-verbal behavior. In: Affect, cognition, personality. N.Y., 1995.
2. Профайлинг. Технологии предотвращения противоправных действий/ Под ред. Ю,М,Волынского-Басманова, Н.Д.Эрашвили. 2-е изд -М., 2013.
3. Buyuk Britaniyaning Renful Premier Technologies dasturining "Profiling" trening materiallari.
4. Nitzan Cuper. Facial expression Recognition. Ben gunion university of the Negov., 2013.
5. Ekman P. Telling lies Clues to deceit in the marketplace, politics, and marriage. New York-London. 1992.